Iqtisodiyotni innovatsion isloq qilish sharoitida yer hisobini yuritishning ahamiyati.....	1042
Hojiyev Qo'chqor Mamadiyorovich	
Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047
Sherqulov Nodir Erkin o'g'li	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении....	1052
Гулноза Тохировна Самиева	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari .....	1057
Majidov Nizomjon	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari .....	1064
Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati .....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foya solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budget tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari .....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlari .....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarning kreditlash amaliyotini takomillashtirish .....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan .....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashev Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана .....	1116
Икромова Ханифа Одиловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarning huquqiy maqomi va ularni isloq qilishning istiqbollari....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi .....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития .....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati .....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilqatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах .....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities ....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları .....	1181
Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



## HUDUDLARDA INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

**Qo'ziboyev Boxodir Azzamboy o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi" v.b. dotsenti

**Ibragimov Behruz Ravshan o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan turizmni, rivojlanish muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. Shuningdek, nogironligi bor shaxslarning turizm ishtirokchisiga aylantirish, turistik obyektlarda ularga yetarli darajada shart-sharoitlar yaratish, insonning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy manfaatlarini ham himoyalash ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** iklyuziv turizm, nogironlar,turizm obyektlari, ijtimoiy kasb.

**Abstract:** The article analyzes the development of inclusive tourism in the country. Different types of inclusive tourism are considered. The article actualizes the need for the development of inclusive tourism and establishes its significance for people with disabilities.

**Key words:** inclusive tourism, invalid people, tourism objects, social protection.

**Аннотация:** В статье проведен анализ развития инклюзивного туризма в стране. Рассмотрены разные виды инклюзивного туризма и возможности доступности туризма для инвалидов. В статье актуализирована необходимость в развитии инклюзивного туризма и установлена его значимость для людей с ограниченными физическими возможностями.

**Ключевые слова:** инклюзивный туризм, инвалиды, объекты туризма, социальная профессия.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar Strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishlaridan biri "Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib aynan unda aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikchiliginı rivojlantirish" deb belgilangan<sup>[1]</sup>.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichga o'tishi bilan turizm industriyasini ham ushbu o'zgarishlarga moslashib bormoqda. Turizm industriyasining istiqbolli yo'nalishlaridan biri aholining alohida ehtiyojmand qatlamini, birinchi navbatda nogironligi bo'lgan shaxslarni turizmga jalb qilish hisoblanadi. Shuninig uchun ham mazkur maqolaning maqsadi – ushbu toifadagi turistlar uchun o'ziga xos muhit yaratish xususiyatlari va muammolarini yoritishga qaratilgan. Turizmning ushbu turi dunyo miqyosida keng tus olmoqda, chunki jami turistlarning 7% nogironligi bo'lgan shaxslar hisoblanadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Alohiba ehtiyojmand aholi qatlaming atrof-muhitga bog'liqligi mamlakatimiz olimlari (Q. Abduraxmonov, N. Tuxliyev, M. Pardayev, I. Tuxliyev, B. Safarov, D. Norkulova va boshqalar) va xorijiy olimlar (V. Preobrajenskiy, M. Mironenko, I. Tverdoxlebov, I. Zorin, S. Sesolkin va boshq.)ning ushbu toifadagi kishilarning ta'lim, ijtimoiy, tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini o'rganish va qondirish masalalari, ijtimoiy normalarning moslashuvchanligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy ishlardida keng yoritilgan.



Turizm sohasida turli shakldagi sog'lomlashtirish xizmatlarini ko'rsatish muammolari tibbiyot, psixologiya, reabilitatsiya, sotsiologiya va sohaga oid mutaxassislarning ilmiy adabiyotlarida ham keng yoritilgan. Ushbu mavzu (I. Seselkin, S. Maxov, D. Chepik, A. Petrova, L. Volobuev "inklyuziv turizmnning rivojlanish muammolari"; Ye. Sigida "nogironlik va turizm: ehtiyoj va ommaboplilik"; Ye. Xolostova, N. Dementeva "ijtimoiy reabilitatsiya"; M. Sylganov "nogironlarning bandlik sohasiga integratsiyalashuvi: Yel mamlakatlarida o'tkazilgan so'rov) kabi Rossiya Federatsiyasi va ayrim xorijlik (Culham A. "Deconstructing Normalisation: Clearing the Way for Inclusion") olimlarning ilmiy ishlarida ko'rib o'tilgan.

Ushbu yo'naliishga bo'lgan qiziqishlarning ulkanligi olingan ilmiy muhokamalarning turistik xizmatlar bozorining inklyuziv segmenti yoki muhitida qo'llanilishini rag'batlantiradi.

Keyingi yillarda inklyuziv turizm nafaqat dam olish va xordiq chiqarish, tanishuv, balki kishilarning sog'lig'i ni tiklash, davolash va sog'lom turmush tarzini tashkil etish bilan ham uyg'unlashib ketmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekistonda ijtimoiy turizm assotsiatsiyasi tashkil etildi.

## TADQIQOT USULLARI

Maqolada analiz va sintez, abstrakt-mantiqiy tahlil, kuzatish, qiyoslash, statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Shu bois, bibliografik tadqiqot natijasida imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan inklyuziv turizmnning rivojlanish muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. Maqolada, O'zbekiston Respublikasi turizmnning rivojlanish davlat qumitasi va BTT manbalari ma'lumotlardan foydalangan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, alohida himoyaga hamda maxsus yordamga muhtoj aholi segmenti ortib bormoqda. Umumtan olingan xalqaro standartlarga muvofiq ushbu kishilar turli inklyuziv toifalarga kirittiladi, turizm sohasida esa bu inklyuziv turistlar segmentidir. Ma'lumki, bugungi kunda "inklyuziv turizm" atamasi ilmiy va amaliyot jihatdan yakuniy tasdig'ini topmagan hisoblanadi. Ushbu atamaning bir nechta ta'riflari mavjud. Yel mamlakatlarida imkoniyati cheklangan kishilar uchun mo'ljallangan turizm segmenti "ommabop turizm" yoki "barcha uchun mo'ljallangan turizm" deb ataladi. Bunday atama "barcha uchun turizm" (tourism for all), "ommaviy turizm" (accessible tourism), "nogironlar uchun turizm", "invaturizm", "paraturizm", "to'siqsiz turizm", "reabilitatsion turizm", "o'quv-korreksion turizm" va boshqa atamalar bilan ham uyg'unlashishi mumkin. Bunda ushbu faoliyat turining ijtimoiy reabilitatsiya maqsadi o'zgarmasdan qoladi [2].

Ushbu tushunchaning yakuniy atamasi BMT qoshidagi YuNVTO ning 2009-yilda Astana (Qozog'iston) shahrida bo'lib o'tgan 18-sessiyasida qabul qilingan va "turistik sayohatlarni soddalashtirish bo'yicha Deklaratsiya" ga kiritilgan. Unda YuNVTOga a'zo mamlakatlar uchun o'z hududlarida imkoniyati cheklangan kishilar uchun turistik obyektlar va muassasalarini barpo etishlari, ular uchun mayjud bo'lgan xizmat turlari, tashkilot va muassasalar hamda mavjud muammolar to'g'risida aniq va hammabop hisoblangan axborotlarni taqdim etish tavsija qilingan [3, s. 132-135].

Ko'pgina zamonaviy tadqiqotlarda odatda "moslashuvchan (adaptiv) turizm". Deb ham ataladi. 1991-yilda BMT bosh assambleyasining Butunjahon sayyohlik tashkiloti (YuNVTO) tomonidan "90-yillarda imkoniyati cheklangan kishilar uchun turizm imkoniyatlari yaratish" (Creating Tourism Opportunities for Handicapped People in the Nineties) rezolyatsiyasi qabul qilingan bo'lib, keyinchalik (2005-yil, 16-sessiya Senegal, Dakar) ushbu atama "barcha uchun mo'ljallangan turizm" (Accessible tourism for all) nomi bilan ataladigan bo'ldi [4].

Shunday qilib "inklyuziv turizm" atamasi va "barcha uchun mo'ljallangan turizm" sinonim so'zlar hisoblanadi, "adaptiv turizm" atamasi esa turizmnning alohida ehtiyojlarga ega shaxslar uchun turistik faoliyatni va servis xizmatlarini tashkil etishga qaratilgan maqsadli yo'naliishini o'zida aks ettiradi. Bunday yondashuv "adaptiv turizm"ning tabiiy muhitda turistik sayohat turi sifatida qo'llanilishiga imkon beradi. Aksincha, "to'siqsiz turizm" atamasi esa turistik obyekt va infratuzilmalarining moslashuvchanlik darajasini ifodalab mahalliy turizm yoki ekskursiya faoliyatida keng qo'llaniladi [5; 6, c. 129].

## TAHLIL VA NATIJALAR

"Hammabop turizm" asoschilaridan biri Skott Rayan "Inklyuziv turizmnning ijtimoiy integratsiya sifatida tushunmog'imiz zarur", – deb hisoblaydi, [6, p. 65-78]. Ijtimoiy integratsiyaning universal yo'llaridan biri esa turizm hisoblanadi. Shuning uchun turizm sohasini "turizmnning barcha uchun yo'naltirilganligi" tamoyili asosida tashkil qilish, turistik markaz va obyektlar infratuzilmasini barcha toifadagi va imkoniyatli shaxslar uchun, shu jumladan nogironlar, yoshi katta kishilar va ularning vakillari, oila a'zolari va vasiylari, yosh bolali oilalar uchun moslashish zarurdir [7].

Inklyuziv turizmnning turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi barcha ishtirokchilarni hamkorlikka jalb qiluvchi turizm shakli deyishimiz ham mumkin. Bu imkoniyati cheklangan barcha toifadagi kishilarni, birinchi navbatda



alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan kishilarni turistik infratuzilmaga jalb qilish orqali atrof muhitning mobil, audiovizual, va kognitiv hammaboplidan foydalanish imkoniyatini yaratib berish hamdir [8].

Inklyuziv reabilitatsion-ijtimoiy turizmning asosiy konsepsiysi bundan 30 yil ilgari nogiron me'mor Ron Meyson va uning Shimoliy Karolina davlat universitetidagi hamkasblari tomonidan shaklantirilgan hamda amalga oshirilgan hammabop dizaynning quyidagi eng asosiy tamoyillarida o'z aksini topgan [9]:

- 1) foydalanishning tengligi va hammabopligi.
- 2) foydalanishning moslashuvchanligi.
- 3) foydalanishning soddaligi va intuitivligi.
- 4) axborotlarning hammabopligi.
- 5) xatoliklarga sabrlilik.
- 6) kam jismoniy harakatlarni talab etishi.
- 7) zaruriy o'lcham, joy va muhitning mavjudligi.

Ijtimoiy turizmning iqtisodiy samaradorligi va mahsulorligi uning alohida elementlarini o'zida to'liq aks ettiruvchi infratuzilmaning mavjudligida emas, balki turistik maqsadlarda tashkil qilingan hamda barcha toifadagi kishilar uchun to'laqonli dam olish va xordiq chiqarish, jismoniy va ma'nnaviy kuchini samarali tiklashga imkon berishiga bog'liqdir.

Masalan, Germaniyada madaniy-tanishuv turizmini rivojlantirish maqsadida dam olish va xordiq chiqarish joylari imkoniyati cheklangan va kamharakat fuqarolarning ehtiyojlarini ham hisobga olgan holda jihozlangan. Muzey, teatrлarda nogironligi bo'lgan kishilar foydalanishi mumkin bo'lgan kreslo-aravachalar taqdim qilinadi.

Turizm, zamonaviy hayotning muhim ijtimoiy hodisasi sifatida jamiyatning hayotiy faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi [8]. Shu bilan bir vaqtida turizm yana bir muhim funksiyani – imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan kishilar uchun ijtimoiy-reabilitatsiya funksiyani bajaradi.

Inklyuziv turizm bilan bog'liq muammolarni tahlil qilar ekanmiz, uning atrof muhitni o'rghanish va rekreatsiya vositalasi sifatida muhimligini va shu kabi xususiyatlarga ega ekanligini ham ta'kidlab o'tishimiz joiz.

Inklyuziv turizm ijtimoiy (kommunikativ, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-psixologik moslashuv) va jismoniy reabilitatsiya (sog'lomlashtirish, psiko-emotsional ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-ekologik reabilitatsiya)ning keng turlarini qamrab oladi.

Biroq imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan kishilarni sayohat, turli sayr-tomosha va ekskursiyalarga jalb qilish uchun turistik faoliyatning aksariyat turlarini ular uchun ham moslashuvchan, xavfsiz va hammabopligini ta'minlashimiz zarur bo'ladi [9].

Inklyuziv turizmga ta'sir qiluvchi va uni tashkil qilish imkoniyatlarini cheklovchi omillarga quydagilarni kiritishimiz mumkin [10, s. 85-95]:

- potensial turistlarning jismoniy holati (nogironlik, cheklangan imkoniyat);
- potensial turistlarning moddiy ahvoli;
- turistik safarlar uchun maxsus transport vositalarining mavjud emasligi;
- joylashtirish vositalari narxlarining sezilarli darajada yuqoriligi;
- ma'muriy to'siqlarning mavjudligi (masalan, xorijiy safarlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq rasmiyatchilik taomillari);
- turizm va xordiq chiqarishni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy tadbirlarning sustligi yoki mavjud emasligi;
- imkoniyati cheklangan kishilar uchun turmahsulotlarga oid axborotlarni olish imkoniyatining mavjud emasligi yoki turmahsulot marketingining sustligi (turistik destinatsiyalarda imkoniyati cheklangan kishilar uchun turmahsulot assortimentining cheklanganligi);
- imkoniyati cheklangan kishilar uchun sayohatlar uyuşhtirishga zaruriy motivatsiyaning yetishmasligi.

Inklyuziv turlarga talabning sustligi bilan bog'liq omillardan biri nogironligi bo'lgan va imkoniyati cheklangan kishilarning turistik faoliyat bilan bog'liq turli xatarlarga beriluvchanligi, o'zlarini noqulay his etishlari, harakatlanishning qiyinligi yoki cheklanganligi, ko'rish, eshtish imkoniyati cheklangan kishilarda kognitiv qobiliyatlarining sust namoyon bo'lishi, shuningdek, "hammabop turizm" atamasi bilan bog'liq turli mavhumliklar hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilishda quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:



1. Aeroport, temiryo'l avtovakzallar, vagon va avtobuslar, maxsus to'xtash joylari, ko'tarish qurilmalari, travolatorlar, maxsus yo'llar, transport vositalarini ta'mirlash kabilarni o'z ichiga olgan inklyuziv turizmning transport va destinatsiya infratuzilmasini yaratish.
2. Imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan kishilar va asosiy ishchilar ulushi shunday shaxslardan iborat bo'lgan yuridik shaxslar maxsus mehmonxonalar tarmog'ini kengaytirish, soliq imtiyozlari joriy etish. Masalan nogironlar uchun maxsus jihozlangan mehmonxona nomer fondini 5 yil davomida soliq to'lovlaridan ozod qilish.
3. Imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning sog'lig'ini tiklash, sayohat qilish imkoniyatini oshirishga xizmat qiluvchi davolash-sog'lomlashdirish muassasalari (tibbiy turizm) sonini ko'paytirish. Bu kelgusida aholining kam daromadli qatlamlarini ham turizmga jalb qilish, mavsumdan tashqari davrlarda ham sayohat qilish imkoniyatini oshirishga xizmat qiladi.
4. Imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarga keng assortimentdagi turistik xizmat turlarini taklif qilishni tashkil qilish orqali turfirma va turoperatorlarning moliyaviy imkoniyatlarini yanada oshirish.
5. Imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun turistik-ekskursiya xizmatlari to'g'risidagi axborotlar bazasini shakllantirish va zaruriy axborot bilan ta'minlash; "barcha uchun mo'ljallangan turizm" tamoyili asosida ijtimoiy turizmni rivojlanadirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va qabul qilish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Inklyuziv turizm turizmning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon statistikasi shuni ko'rsatmoqdaki, keyingi yillarda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning turizm va sayohat faoliyatiga jalb qilinishi ortib bormoqda.
2. Turizmnинг mazkur turining paydo bo'lishi va kelgusi shakllanishi mazkur yo'nalishdagi nazariy-metodologik talqin va ushbu atamaning tushuncha-atamashunoslik apparatining alohida taddiq qilinishi bilan bog'liqdir.
3. Mavjud xorijiy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, inklyuziv turizmning rivojlanishi va istiqboli avvalo, imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarni uchun mo'ljallangan mehmonxona-restoran va transport xizmatlari, hammabop tabiiy va antropogen hududlarning mavjud bo'lishiga bog'liq va shu kabilar.
4. Turizm sohasida inklyuziv turizmni joriy etish aksariyat mamlakatlar uchun me'moriy-texnik, tabiiy, turistik, gastronomik, ijtimoiy-maishiy, axborot va boshqa yo'nalishlarda qator muammolarning hal etilishini taqozo etadi.
5. Inklyuziv turizm sohasida ish tajribasiga ega ilg'or mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatning milliy xususiyatlari, mentaliteti, iqtisodiy taraqqiyoti va uning asosiy omillari, moddiy-texnika bazasining rivojlanish darajasi va jamiyat a'zolarining ushbu faoliyat turini joriy etish bilan bog'liq yangiliklarni qabul qila olish darajasini o'zida aks ettirmaydi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanadirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" to'g'risida 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni.
2. Белоусова, Н.В. Инклюзивный туризм в системе реабилитационной географии: от теории к практике: монография / Н. В. Белоусова. – К. – Из-во ТАЛКОМ, 2018. 344 с.
3. Белоусова, Н. В. Теоретические аспекты развития инклюзивного реабилитационно-социального туризма в Украине / Н. В. Белоусова // Научный журнал "Научные записки Сумского государственного педагогического университета. Географические науки". – Сумы: СумГПУ имени А.С.Макаренко. – 2018. – Выпуск 9. – С.205-213.
4. Всемирная туристическая организация (UNWTO). [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.unwto.org>.
5. Ван Циншен Теоретические и методологические аспекты рекреационной географии: современный подход / Ван Циншен [и др.] // Украинский географический журнал. – 2003. – №1. – С.45-49.
6. Сеселкин, И. А. Проблемы развития инклюзивного туризма / И. А. Сеселкин [и др.] // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2015. – № 11 (129). – С. 134-143.
7. The Costs of Inclusion / J. MacBeath, M. Galton, S. Steward et. al. Cambridge: Victoria Press, 2005. – 78 p.
8. Заярнюк, А. В. Социальная защита уязвимых слоев населения: отечественный и зарубежный опыт / А. В. Заярнюк // Научные труды Кировоградского национального технического университета. Серия "Экономические науки". – Кировоград: КНТУ. – 2004. – Вып. 6. – С.132-135.
9. International Displacement Monitoring Center. Latest IDP numbers bycountry. – Режим доступа: <http://www.internaldisplacement.org/database>
10. Сигида, Е. А. Инвалидность и туризм: потребность и доступность : монография / Е. А. Сигида, И. Е. Лукьянова. – М.: ИНФРА-М, 2015. – 106 с.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

